

TONG Yulduzi


№36 (66421)
2003 yil
15 sentabr
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqarilgan

70 YOSHING MUBORAK, NUKUS!

Buyuk bobomiz Amir Temur: «Qudratimizni bilishni istasangiz, biz qurgan binolarni ko'ring», - degan ekanlar. Sohibqiron avlodlari hozirgi kunda o'z shahar va qishloqlarini obodonlashtirishga katta e'tibor bermogdalar.

Qutlov



Bizning poytaxtimiz - Nukus ham kundan-kunga gullab-yashnab bormoqda. 1932 yili poytaxt bo'lgan go'zal ona shahrimiz shu kunlarda kelib, 70 yoshini tantana qilmoqda.

70 yil davomida poytaxtimiz tanib bo'lmaz darajada o'zgardi. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan so'ng, shahar obodonchiligiga alohida e'tibor qaratildi. Hozirda poytaxtimizdagi qad ko'tarib turgan zamonaviy binolar, so'lim dam olish maskanlari, ozoda ko'chalar qalbimizni g'ururga to'ldiradi.

Men barcha qoraqalpog xalqini poytaxtimizning 70 yillik to'yi bilan qutlayman!

Nazira QAYIPBERGANOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Xo'jayli tumanidagi
57-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

GO'ZALLIKNING BAG'RI KENG

Maktabimiz kunchiqar tarafga qaratib qurilgan. Erta tongda quyoshning zarrin nurlari maktabimiz hovlisiga poyondoz to'shaydi. Yo'l-kalar chetidagi anvoyi gullar iliq nurlar qo'ynida erkanadilar. Ayniqsa, turli ranglarda tovlanib turgan atirgullar kishi ko'zini quvnataadi. Bugun maktabga barvaqtroq keldim. Hovliga suvlar sepilib, toza qilib supurilgan. Bu tozalikni ko'rib, zavqlanib ketdim. Beixtiyor y o' l k a

Ozoda yurtim

chekkasidagi qip-qizil duxoba rangdagi atirgul yoniga borib, unga zavqlanib tikildim. Uning muattar hididan bahra olish niyatida egilib, asta hidladim. Yaproqlari qatini siypaladim. Vo'ajab! Shu vaqt yaproqlar orasiga yashiringan tillaqo'ng'izga ko'zim tushdi. Shoshilib, boshqa gullarni ham orasini qaray boshladim. Ularda ham tillaqo'ng'izlar bor edi.

Taajjub! Qo'ng'izlar ham go'zallikdan bahra olishayaptimi? Yoki uni orasida yashirib, ko'payishayaptimi?

Bilmadim. Tabiatning o'ziga xos falsafasidir bu. Menga bu manzarada ramziy ma'no bordek tuyuldi. Chunki insoniyat yaralibdiki, go'zallikka talpinadi, unga oshno bo'ladi. Kimdir go'zallikni qudratidan hayratlansa, kimlardir uni ortiga yashirib, o'z manfaatlari yo'lida foydalanadi. Go'zallikning bag'ri keng, deganlari shumikan yoki?

Oydina BAHRIDDINOVA,
Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi Sobir Quraboyev nomli
45-maktab o'quvchisi.



Mana, biz orziqib kutgan 1-sentabr ham keldi. Sog'inch va xayajon bilan yangi o'quv yilini boshlab yubordik. Har tongda vaqtili turib, yana maktabga oshiqamiz. Oila a'zolarimiz ortimizdan bizni kuzatib qolishar ekan, qayta-qayta: «Yo'ldan ehtiyot bo'lib o'tinglar, besh d a q i q a

YO'L TAGIPRA YO'L
k e c h

qolsangiz ham eson-omon o'qib kelinglar», - deb uqtirishadi. Chunki bizning maktabimiz Toshkent halqa yo'lining narigi tarafida joylashgan. Mashinalar qatnovi tinmaydi. Maktabga borib kelish uchun har kuni shu halqa yo'lini ikki marotaba kesib o'tishga to'g'ri keladi. Kattalarning havotirlanishiga asos bor. Keyingi yillarda maktab yo'lida 22 marta yo'l transporti hodisasi sodir bo'ldi. «Bib-bib»lab yo'l bo'shat deyayotgan, samolyotday uchib borayotgan mashinalarni kuzatib, halqa yo'li ostida yo'l qurish kerak deb o'ylaymiz. Bunga iloj bo'lmasa, mahallamizda qurilayotgan hashamatli binolarni oltinchi sinfgacha o'qish uchun ajratib berish kerak. Aytgancha, yaqinda ko'chamiz boshida sahovatli insonlar hayotdan bevaqt ko'z yumgan sobiq o'quvchi nomida choyxona qurishdi. Bu choyxonada ota-onalarimiz hordiq chiqarishlari, to'y va ma'rakalar o'tkazishlari mumkin. Savob uchun qilingan ish. Ammo yangi binoni bilim olishi, tinch va hotirjam uy-uylariga tarqalishi uchun bolalarga berishsa, yanada mo'lroq savobga qolishlari mumkin-ku. Kelajakda, kimsan, falonchining maktabida o'qiganmiz, deb o'sha sahovat egalariga bir umr olqish yog'dirib yurardik. Baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun kattalar tezroq harakatga tushishini tilab,

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi Yusuf MO'MINOV
nomli 274-maktabning 7-sinf o'quvchilari.



Assalomu-alaykum hurmatli «Tong yulduzi» ro'znomasi muharririyati! Farzandlarimiz sevib o'qiydigan ushbu ro'znomani biz ota-onalar ham muntazam o'qib boramiz. Ayniqsa, sening sahifalaringda yoritilayotgan Respublikamizning turli burchaklaridagi maktablar hayoti, o'quvchilarning yayrab bilim olishlari haqidagi maqolalarga qiziqish bilan yondoshamiz.

Bizning Qo'shtepasaroy fuqarolar

MAKTAB QURILISHINI KIM BOSHLAYDI?

yig'ini hududida joylashgan Zahriddin Muhammad Bobur nomli 32-o'rta maktabda ham farzandlarimiz yayrab-yashnab tahsil olishsa qani edi! To'g'ri, ustozlar o'z saboqlarini bekamu ko'st beradilar. Ammo maktab binosi juda eski, sinf xonalari, sport zali yetarli emas. «Yo'qni yo'ndirib» bir amallab o'qishni davom ettirayotgan bolalarimizga rahmimiz keladi. To'g'ri, bu yerda joylashgan «Mash'al» shirkat xo'jaligi bu yil maktab uchun yer ajratdi, lekin uning qurilishini kim boshlaydi? Ana senga jumboq... Viloyatimiz rahbarlari bu eski maktabni bir kelib ko'rishsa edi... Qadrli «Tong yulduzi», sendan iltimos, bizning 32-o'rta maktab qurilishiga kattalarni jalb etishda ko'maklashsang. Axir farzandlarimizning zamonaviy, ko'rkam va hamma sharoitlari bor maktabda ta'lim olishga haqlari bor-ku! Ushbu shikoyat maktubini biz ota-onalar o'z qo'limiz bilan yozdik. Sababi, ularni eski maktab muammosi bilan ko'nglini yana bir bor ranjitishni

istamadik.

Sizlarga sog'lik-omad tilab ota-onalar nomidan:
N. MO'MINOV, Sh. OTABOEV, E. SIDDIQOV,
jami 9 kishi.

Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi Qo'shtepasaroy qishloq fuqarolar yig'ini
Z.M. Bobur nomidagi 32-o'rta maktab.



Yo'g'e,
deysizmi?

Xushxabar



mumkinligini ta'kidladi.

Ayni paytgacha kitobning qismi tarjimadan chiqdi.

«Oltin meros» jamg'armasi Toshkent shahar bo'limi xodimi Muqaddas Do'smatova yaqindan yordam berayapti.

Bu «Oltin meros» ning amerikalik hamkorlar bilan uyushtirayotgan tadbirlaridan birinchi, xolos. YAqin kunlarda jamg'arma bebaho meroslarimizdan amerikaliklarni xabardor etish uchun AQShda doimiy faoliyat yuritayotgan amaliy san'at ko'rgazmasini o'tkazishni rejalashtirmoqda.

Bunday tadbirlar ikki mamlakat o'rtasidagi birodarlik rishtalarini yanada mustahkamlaydi. San'at asarlarini tarjimonsiz tushunarlar. O'z tillarida o'qib esa o'tgan kunlarimizga chekinarlar. Zero, moziyga qarab ish ko'rmoq, xayrli deyilar.

Abduhamid ABDUG'AFFOROV.

AMERIKALIK BOLALAR «O'TKAN KUNLAR»NI O'QISHADI

ma'lum

Asar tarjimoni Mark Risga

YAXSHILIK YERDA QOLMAS

Do'stim Ahmadning Bo'ynoq laqabli kuchukchasi bor. Juda yoqimtoy, aqlli kuchuk. Xuddi odamlardek hamma gapni tushunadi.

Bir kuni ko'chaga chiqsam, Bo'ynoq ishtaha bilan suyak g'ajiyotgan ekan. Shu payt uni Ahmad chaqirib qoldi. Egasiga so'zsiz itoat qilishga odatlangani uchun yeyayotgan suyagini tashlab, ichkariga chopib ketdi. Men esa suyakni olib, uning ketidan Ahmadlarnikiga kirdim. Suyakni Bo'ynoqning ini yoniga qo'ydim. U menga xuddi minnatdorchilik bildirgandek qarab qo'ydi va ini tomonga yugurib ketdi.

Oradan bir necha kun o'tdi. Oyim do'kondan non olib kelishga yubordilar. Nonni olib, sotuvchiga pulini beray desam, cho'ntagimda hech vaqo yo'q-da. Uyda qoldirgandirman, degan o'y bilan ortimga qaytdim. Uyda ham yo'q. Yana ko'chaga chiqdim. Qarasam, Bo'ynoq og'zida pulni tishlagancha, dumini likillatib turibdi...

Yaxshilik yerda qolmas, deganlari shu bo'lsa kerak-da.

O'tkir QO'CHQOROV,

Poytaxtdagi 316 - o'rta maktabning 6 - sinf o'quvchisi.

HAR BOLADA KITOB BO'LSA

Mana, yangi o'quv yilimizning ikkinchi haftasi ham o'tib boryapti. Bayramona, ko'tarinki kayfiyatimizni bir chetga yig'ib qo'yib, o'qishga, bilim olishga sho'ng'ib ketdik. Puxta bilim olishimiz uchun nimalar zarur? Birinchi navbatda darsliklar, albatta. Bu borada poytaxtimizdagi Olim Xo'jayev nomli

21-o'rta maktabda ahvol qandayligi bilan qiziqib ko'rdik:

-Hozirgi kunda maktabimizning 4-, 5-, 9-sinf o'quvchilari uchun ijara kitoblarini tarqataymiz, dedi biz bilan suhbatda maktab direktori Ma'mura Malikovna. -Bu tadbirdan avvalambor ota-onalarimiz shod bo'lishyapti. Qolaversa, o'quvchilarimizning kitobga bo'lgan hurmatlari ortyapti. Qolgan sinf o'quvchilari uchun «Arzonlashtirilgan kitoblar do'kon» tashkil qilganmiz. Unda yangi kitoblar bilan birga ota-onalardan sotib olingan kitoblar ham sotilyapti. Shu yo'l bilan maktabimiz o'quvchilarining 95 foizini darsliklar bilan ta'minlashga erishdik.

Shuningdek, 139 nafar kam ta'minlangan oilalarning farzandlari hokimlik tomonidan otaliqqa olingan va darsliklar bilan to'liq ta'minlangan...

Ularning so'zlarini tinglar ekanmiz, ko'nglimizdan bir mushohada kechdi: qaniydi, hamma maktablarimizda ham ahvol shunday bo'lsa. Har bir o'quvchining qo'lida kitob bo'lsa!

Abror UMARQULOV,
O'ZMU talabasi.

O'z fikrim

Aziz tengdoshlarim. Men bugun sizlar bilan demokratiya haqida suhbatlashmoqchiman. Bu mavzuda so'z ketganda, o'z-o'zidan «demokratiya o'zi nima?» degan savol tug'ilishi tabiiy.

Demokratiya — inson huquqlari ustuvor bo'lgan

DEMOKRATIYA HAQIDA

jamiyat va bunday jamiyatda davlat manfaatlaridan inson manfaatlari ustunroqdir.

Ko'pchiligimizga ma'lumki,

Demokratiyaning asoschilari sifatida AQSh davlati tan olinadi. AQShda demokratiya XVIII asrdan boshlab hukm sura boshlagan. Oldinroq esa... XVI asrda Hindiston mamlakatining shohi Jaloliddin Akbar Demokratiyaga o'xshash tuzumga asos solganligini ko'pchilik bilmaydi. Ma'lumki, Akbarning bobosi Zahiriddin Muhammad Bobur edi. U Hind o'lkasini zabt etganida u yerdagi aholi har-xil dinga mansub edi. Bobur esa musulmon edi. Xalqning dinparastligi Boburni Hindistonni 100 foiz boshqarishga qudrat bermasdi. Akbarning otasiga ham ya'ni Humoyunga ham bundan og'irroq taqdir nasib etdi.

Ammo Akbar, butunlay boshqa yo'l tutib diniy nizolarga deyarli o'z vaqtida barham berdi. Bu ishda u asosan o'z davlatida katta o'rin tutgan islom dinining peshvolari bilan raqobatlashdi. Ularni hokimiyatdan chetlashtirib barcha dinlarga teng munosabatda bo'la boshladi. So'zini isboti sifatida esa majusiylarni, budparastlarni, nasroniylarni, otashparastlarni va musulmonlarning muqaddas kitoblarini ko'zlariga surtib ularni javonlarda saqladi. Uning bu ishidan musulmonlardan tashqari barcha din vakillari behad shod bo'lishadi. Musulmonlar esa Akbarni oqilona siyosatiga tushunmay uni kofirga chiqarib qo'yishga ham ulgurishadi. Lekin Akbar musulmon edi, Qur'oni Karimni yod bilardi va 5 vaqt namozni kanda qilmasdi. Barcha dinlarni bir ko'rishning sabablarini turlicha izohlash mumkin. Birinchidan, yurtni tinch qilish va diniy nizolarni bartaraf etish, ikkinchidan esa xalq ishonchini qozonish va Hindistonni to'liq idora etish edi. Hindistonning tub aholisi asosan buddizm va o'ndan ortiq turli tangrilarga sig'inardi. Akbarni esa hamon kelgindi deyishdan toyishmasdi. Bunday ta'alarni tugatish maqsadida «Juziya» ya'ni g'ayridinlardan olinadigan soliq turi va boshqa soliqlarni bekor qiladi va Hind qiziga hindcha udumlar bo'yicha uylanadi. Hukumatni boshqarish uchun mahalliy odamlarni ham jalb qiladi. Hatto nozir etib Hind yigiti Abdulfazlni tayinlaydi. Shunday qilib, Akbar Demokratiyani ko'pgina jihatlarini o'zi bilmagan holda joriy etadi. Biz esa yurtidoshimizning dunyoga dong'i ketgan «super tizim»ning ko'pgina qirralarini ixtiro qilganidan faxrlansak arziydi. Ha, agar bu tizimga ya'ni demokratiya qoidalariga hamma joyda sidqidildan rioya qilinsa, u o'zining ijobiy kuchini ko'rsatishi shubhasizdir.

G'ayrat G'ULOMOV,

Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 1-maktabning 9- «A» sinf o'quvchisi.

Tahririyatdan:

Aziz o'quvchilar! Sizni siyosiy ong, ijtimoiy harakat mavzusida fikrlashga

SHODIYONA DAVOM ETADI


Ona diyorimiz, nuraflon O'zbekistonimizda hamon bayram shukhi kezmokda. Axir 12 yilda amalga oshirilgan ibratli ishlardan, bunyod etilgan ulkan qurilishlardan, erishilgan zafarlardan quvonmay bo'ladimi.

Bu quvonchli bayram Farg'ona viloyatining Quva tumanida joylashgan 5 - umumta'lim maktabida ham qizg'in bellashuv asosida nishonlandi. Maktabning «Nafosat» va «Nihol» guruhi qatnashchilari o'zaro kuch sinashdilar. Zukkolik, bilimdonlik, chaqqonlik, do'stlik, tinchlik mavzusida o'tkazilgan tadbir yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, Gulshanoy Jo'rayeva, Dilshoda Do'smatova, Umida Xudoyberdiyeva o'zlarining mahoratlari bilan ustozlari va mehmonlarni hayratga soldilar. Ko'rik yakunida g'oliblarga qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Ha, ona diyorimizda hur va ozod nasllarimiz kamolga yetaversin!

U.HAYDAROVA,

Farg'ona viloyati, Quva tumanidagi 49-maktab o'qituvchisi.





Sog' yurak - tog' yurak

SEN POLVON BO'LASAN

Abdulla Tangriyev - 1981 yilda Surxon elining Boysun tumani, Tillakamar qishlog'ida tug'ilgan. Dzyudo bo'yicha Jahon chempionati va Olimpiada o'yinlari ishtirokchisi, xalqaro turnirlar sovrindori, O'zbek kurashi «Prezident sovg'asi uchun», «At-Termiziy» turnirining ikki karra g'olibi, Pusanda o'tgan Osiyo o'yinlarining bronza medali sohibi.

Alpomishning yurti Surxon polvonlari yurt dovrug'ini olamga yoymoqdalar. Kuragi yerga tegmagan Erali polvon Mahmarasulov, Mahtumquli polvon Mahmudov, Toshtemir polvon Muhammadiyev... Eh-he, bunday nomdor polvonlar ro'yxatini Surxondaryoda uzoq davom ettirish mumkin.


Bilamizki, kurashning har xil turlari bor. Jumladan, dzyudo, sambo, yunon-rum kurashi, erkin kurash va o'zbek kurashi. Har birining o'ziga xos usullari tarixiy yodgorliklarda aksini topgan.

Polvonlar o'z mahoratlarini to'y-hashamlarda namoyish etib kelganlar.

Tovash ota 6 nafar o'g'li orasida kenjasi Abdullaga yorqin umid bilan boqardi. 5-6 yoshli Abdullani otiga mingazib, Boysunning to'ylariga erinmay olib borar, davralarga tushib, qo'li baland kelayotgan o'g'ilchasining hatti-harakatini ko'rib quvonardi. Abdullaga «sen polvon bo'lasan, Boysunni dunyoga tanitasan», - deb dasturxon atrofida kosasidagi go'shtlarni ilinardi. Chindan ham Abdulla

tengdoshlari orasida gavdasining kattaligi, kamgapligi, jiddiyligi bilan ajralib turardi. 1987 yilda ota olamdan o'tdi. Ammo, uning vasiyati shunday edi: - Abdullaga mendan keyin bee'tibor bo'lmanglar, undan zo'r polvon chiqadi.

1-sinfni Boysundagi maktabda tugatgan Abdullani Toshkentda yashovchi akasi, O'zbek kurashi bo'yicha sport ustasi Karim Tangriyev poytaxtga olib keldi.



Poytaxtdagi 90-maktabda o'qishni davom ettira boshlagan o'spirin geografiya, tarix fanlariga qiziqar, ona tili va matematikaga salgina yo'qroq edi. Ko'p o'tmay, o'qituvchidan dakki yeyishlari, maktabga akasi va kelinoyisini chaqirtirilib turishlari odat tusiga aylandi.

Avvaliga Abdulla o'rtoqlarining bu holatdan kulishiga e'tibor qilmadi. Oxiri bo'lmadi. Darsdan keyingi ko'cha muyulishidagi «jang», unga faxrli «paxan» laqabini orttirdi. O'shanda Abdulla bir o'zi 10 nafar bolaga teng kelgandi.

Karim aka ukasidagi iqtidorga befarq bo'lolmasdi. 9 yoshidanoq u Abdullani erta turishga odatlantirdi, badantarbiya mashqlarida chiniqtirdi. Shuningdek, «Dinamo» sport jamiyati qoshidagi dzyudo zaliga boshlab keldi. Bu vaqtda Abdulla roppa-rosa 10 yoshda edi. Dzyudo zalida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy, iqtidorli dzyudo ustasi Vladimir Pyatayev ularni

ochiq chehra bilan kutib oldi. Endi Abdulla haqiqiy sportchilardak mashg'ulotlarda chiniqib borardi. Ketma-ket musobaqalar uni sambo, dzyudo va o'zbek kurashida tengqurlariga va murabbiylariga tanita boshladi. 7- sinfdan boshlab yosh polvon akasining iltimosi, mashhur qilichboz Sobir Ro'ziyev yordamida poytaxtda joylashgan «ROZK»ga o'qishga kirdi. Sport maktabidagi hayot, ustozlar ko'magi, sportchilarga xos odatlarga Abdulla ko'nikib ketdi. Yoshlar va o'smirlar o'rtasidagi musobaqalarda mutloq g'olib bo'lib keldi.

-Men, - deydi yosh polvon, sportning mashaqqati bolalikdan boshlanishini yaxshi bilaman. Ba'zan erta turishlar, tinimsiz mashg'ulotlardan zerikib, Boysunga ketgim kelardi. Ammo bu fikrimga Karim akam aslo rozilik bermasdilar. Sport maktabida o'qish, do'stlar bilan musobaqalarga borish bizni yirik bellashuvlarga tayyorlab borayotganini bilardik. Internatda o'quvchilik yillarimdayoq o'zbek kurashi va dzyudo, sambo bo'yicha O'zbekiston chempioni edim.

Mustaqilligimizning 12 yilligi to'yiga to'yona deb, Janubiy Koreyaning Deygu shahrida o'tkazilgan talabalarning Jahon Universiadasi musobaqasidan Abdulla akangiz yurtga ikkita oltin medalni taqdim etdi. Ushbu musobaqaga 174 mamlakatdan yuzlab sportchilar ishtirok etdi. Shuningdek, dzyudo bahslarida 71 mamlakat sportchilari qatnashdi. Vakillarimiz orasidan esa Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi 100 kg. vaznda Abdulla Tangriyev mongoliyalik va fransiyalik kuchli dzyudochilar ustidan sof g'alaba qozondi va oltin medalni qo'lga kiritdi. Shu kunlarda chempion Abdulla Tangriyev 11-14 sentabr kunlari Yaponiyaning Osaka shahrida bo'lib o'tadigan dzyudo bo'yicha Jahon chempionati musobaqalarida ishtirok etmoqda. Abdullaning orzusi 2004 yili Gretsiyaning Afina shahrida bo'ladigan Olimpiada o'yinlarida ham oltin medalni qo'lga kiritish.


Ma'mura
MADRAHIMOVA.
Suratkash:
A. HAYDAROV.



SAN'ATKORNING QAMCHISI - QARSAK

17 sentabr kuni «Turkiston» saroyining yozgi binosida yosh san'atkorlarning Galakonserti bo'lib o'tadi. Bu konsertga yosh iqtidorli xonanda Zaur Aliyev ham o'zining yangi qo'shiqlari bilan ishtirok etadi. Zaur konsert dasturida qatnashish taraddudini ko'rish barobarida, yangi yozgan qo'shiqlariga klip olish ishlarini ham boshlab yuborgan. U yosh ijodkorlar Sevara O'rinboyeva va Rustam Tilashov hamkorligida ikkita yangi qo'shiq yaratdi. Bu qo'shiqlar «Go'zalim» va «Ko'zlarim» deb nomlanadi. «Bu qo'shiqlarimni yozishda

San'atim - saodatim



menga ustozim Ahmadjon aka Tursunovning xizmatlari katta bo'ldi. Qo'shiqlarim muxlislarimga yoqsa, o'zimni baxtiyor his qilardim. Chunki, muxlislar olqishi xonandaga kuch-quvvat baxsh etadi-da! - deydi Zaur Aliyev. Uning ko'pgina qo'shiqlari allaqachon radio to'lqinlari orqali yangrab, quloqqa tanish bo'lib qolgan. Asosiy tanishuv esa «Turkiston» da bo'ladi. San'atkorning qamchisi - qarsak. Qani, yangi, yosh xonanda qaygacha chopar va o'z shinavandalarini topar ekan?...

Abdul XAMID.


Bilasizmi?

BULBUL QACHON
KUYLAYDI?

Bulbul haqida she'r yozmagan shoir yo'q hisobi. Uning sayrashini ta'riflashadi-yu, ammo hech kim ko'ngildagidek insho etgan emas. Aytgancha, ilk bor bunga qadim yunon dramaturgi Aristofan urinib ko'rgan edi!

Shoirilar tavsifiga ishonadigan bo'lsak, bulbul erta tongda sayrarmish. Afsuski, bunday emas. Bulbul sayrashini kunduzi ham, kechasi ham eshitish mumkin, ammo ularning ovozi boshqa qushlar tovushi orasida eshitilmaydi.

Bulbulning uyasi ancha g'alatiroq tiklanadi. U yo yerda, yoki unchalik baland bo'lmagan joyga quriladi. Uyaning tashqi tomoni tik qo'yilgan barglar bilan o'raladi. Uyaning o'rtasi kosasimon chuqurlikda bo'lib, o'simlik ildizlari tolalari juda tartib bilan to'shaladi. U juda omonat quriladi, sal teginsa qulab ketadi.



Chinoz Xalq Ta'limi Bo'limiga qarashli 14 - «Teremok» bolalar bog'chasi 120 o'ringa ega bo'lsa-da, hozir bu yerda 180 nafar kichkintoy tarbiyalanmoqda. Qiziq, jajjilarning har tomonlama

bildik. Ushbu ta'lim muassasasida

120 O'RINLI BOG'CHADA 180 BOLA...

kamol topishlari uchun maskanda barcha sharoitlar qanday yaratilgan ekan-a? Mudira Flyura Ahmedova rahbarligidagi mehribon tarbiyachi- pedagoglar o'z vazifalarini sidqidildan bajarishayotganini ko'rdik va

tarbiyachilar tomonidan bolalar uchun qo'g'irchoq teatri, shaxmat-shashka, kashtachilik, rassomchilik, jismoniy tarbiya to'garaklari bepul ishlab kelayotgan ekan. (Umuman, to'garak uchun pul to'lash qachondan paydo bo'ldi?) Turli ko'ngil ochar soatlar, tadbir va bayram ertaliklari o'tkazilayotgani ham

yaxshi. Bolajonlar ishtirokida «Sog'lomjon-polvonjon», «Onajonim suratini chizaman», «Qo'shiqlar tanlovi», «Rus tili festivali» kabi tanlovlar g'oyat qiziqarli o'tkazilibdi. Maskanda tarbiyalanuvchilar bir yilda ikki marotaba tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, har kuni ertalab hamshira qabulida bo'lishar ekan. O.Rednova, L.Mirzaahmedova, B.Sharipova, G.Rahmatxo'jayevalar yangi pedagogik texnologiyalar asosida izlanishlar olib bormoqdalar. Bu borada Xalq Ta'limi Bo'limi uslubiyotchisi Dilorom Maxanbayevaning yordami beqiyosdir. Bog'chada maktab, mahalla va ota-onalar



bilan ishlash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shu sababli, tarbiya maskanidagi ta'mirlash ishlariga barcha ota-onalar yaqindan yordam berishibdi. 2003-2004 o'quv yilida ushbu tarbiya maskanidan 37 nafar bola sovg'a-salomlar bilan maktabga kuzatilgani ham ibratli hol.


Ha albatta, ertangi kun bugundan boshlanadi. Ushbu ta'lim maskanida ertangi kun vorislarini tarbiyalash uchun chindan ham barcha sharoitlarni yaratish payti kelmadimikan?..

Ilvira OTAMURODOVA.



Mamlakat mustaqilligidan keyin juda ko'plab xususiy bog'chalar vujudga keldi. Ulardan biri - Shovot tumanidagi «Oydin» bog'cha - maktabidir. Maydoni 2 ming 700 kvadrat metrdan iborat bo'lgan

«OYDIN»NING OYDIN ODIMLARI



muassasaning har bir xonasi mustaqillik yillaridagi yutuqlar aks etgan katta rasmlar bilan bezatilgan. Bu yerda 50 nafar kichkintoy ta'lim - tarbiya olmoqda.

Ularga barcha imkoniyatlar yaratilgan:

xammom, hovuz, hunarxonalar, jonli tabiat burchaklari, sport zali, lingofon va kompyuter xonalari bolajonlar xizmatida. Bolalarga to'rtta yo'nalishda ta'lim beriladi: karate, musiqa, ingliz tili va kompyuter saboqlari yo'lga qo'yilgan.

Xususiy firma beshligi - Otaboy Qurbonov uch o'g'lini yoniga olib, elga transport xizmati ko'rsatadi. Qurilish bilan shug'ullanadi. Turmush o'rtog'i Oydin Qurbonova esa, kelinu qizlari bilan bog'cha-maktabda ishlaydi. U uzoq yillar bog'chada mudira bo'lgan. Bugungi kunda kasbi sirlarini kelin

va qizlariga o'rgatmoqda. Qizi Jumagul Qurbonova bu yerda hozir mudira. Bog'chaga birinchi, ikkinchi sinf o'quvchilari ham qatnaydilar. Kichkintoylar O'zbekiston madhiyasini kuylashni xush ko'radilar. Har bir musiqa darsi madhiyamizni kuylash bilan boshlanadi.

Mustaqillik mevasi bo'lmish ana shunday namunaviy bog'cha O'zbekistonning kelajagi buyukligidan darak beradi.

Javlon SA'DULLAYEV.



demang bizni...

Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidagi «O'zbekiston» shirkatiga qarashli bolalar bog'chasi ayrim sabablarga ko'ra ishlamaydi. Bog'cha ishlamagandan keyin, yosh bolalar bekorga ko'cha changitib yuradi-da. Ammo ohangaronlik bolajon pedagoglar buning yo'lini topdilar.

Ohangaron tumanidagi Birinchi Bolalar va o'smirlar ijod uyida 17 ta to'garak faoliyat ko'rsatadi. Unda 680 nafar o'quvchi bo'sh vaqtlarini unumli va mazmunli o'tkazishga harakat qiladi. Chunki,

bu

IJOD UYINING IJODKORLARI

yerdagi bolalar o'zlari xohlagan to'garakka a'zo.

To'garaklarga atrofdagi 32-, 33-, 35-, 38-, 40-45-, 51- maktab o'quvchilari jalb qilingan. Ayni paytda ijod uyi haqiqiy ijodkorlar bilan band. Ayniqsa, «Kashtachilik» to'garagi a'zolarining ishlari tuman, viloyat va Respublika miqyosida ham o'z o'rniga ega.

JONLANGAN ERTAK

Aziz bolajonlar! Siz har oqshom ertak tinglab, multfilm tomosha qilib, uyquga ketishga odatlangansiz. Hatto aka- opalaringiz ham bu holatni qo'msab televizor oldiga o'tirib olishadi. Uzoq yillardan beri «Oqshom ertaklari» ni Sizga mehr bilan yetkazayotgan bolajon jurnalist Inoyat Abdusamatovani esa hammangiz ham birdek tanimaysiz. O'zbekiston televideniyesining 1-kanalida faoliyat ko'rsatib, ko'plab O'zTV ijodkorlariga ustozlik qilgan dilkash inson Inoyat Abdusamatova, qariyb 40 yildan beri bir dargohda mehnat qiladi. Zamonning alg'ov- dalg'ovlari-yu, turli fe'lli, turfa odamlar orasida o'zining samimiyati va bilimdonligi bilan dadil odimlab kelmoqda: Bizga ko'p va xo'p ertaklar topib, uni sahnalashtirib, yana uzoq yillar xizmatimizda bo'ling, Inoyat opa! Bu so'zlar siz - ertaksevar barcha bolalarning tilagi. Shunday emasmi?

Suratda: (o'ngdan ikkinchi) ustoz Inoyat Abdusamatova yangi ko'rsatuv yaratish jarayonida hamkasblari bilan fikrlashmoqda.



Mana, bir necha yillardan beri to'garak a'zolari Respublika iqtidorli o'quvchilar anjumanida qatnashib, faxrli o'rinlarni olib kelishyapti. Bunga sabab, tajribali, ijodkor- Shahodatxon opa Tojixonova, Sahobat opa Ergasheva kabi jonkuyar ustozlarning mehnati bo'lsa, ajabmas.

- Olti yoshli bolajonlar uchun «Kichkintoy» deb nomlangan guruh tashkil qildik,- deydi 1- Bolalar va o'smirlar ijod uyi direktori Xayriniso opa Jo'rayeva. - Guruhda bolalar turli qiziqarli o'yinlar o'ynaydi, rasmlar chizadi va albatta harflar bilan tanishadi. O'qish va yozish ham o'yin tarzida olib boriladi. Maqsadimiz, bolani zeriktirmaslik va bilimga mehr qo'yishiga ko'maklashishdir.

Ha, «qalovini topsang, qor ham yonar», deb donishmand xalqimiz bekorga aytmaydi-da. Bolajonlarning erkin bilim olishi va hunar egallashi uchun kerakli va yetarli sharoitni yaratishni xohlovchilarga bahona yo'q. Bu borada ayrim shirkat rahbarlariga ijod uyining pedagoglari o'rnak bo'la oladi.

Feruza ODILOVA.



Suv foydali va ayni paytda salomatlik uchun xavfli bo'lishi ham mumkin. Suvsiz hayot- narsiz hayot. Undan butun mavjudot ichishda foydalana ekan, suvning lazzatbaxsh ta'midan butun vujudida bardamlik hissini tuyadi. Bundoq o'ylab qaraydigan bo'lsak, suv ishlatilmaydigan sohaning o'zi yo'q. Undan ichishda, fermalarda, kasalxonalarda va boshqa ehtiyoj uchun foydalaniladi. Ma'lumki, shahar sharoitida suv ta'minoti asosan markazlashtirilgan suv o'tkazish tarmoqlari orqali amalga oshiriladi.

Qishloq joylarida bo'lsa, iste'mol qilish va yoki boshqa maishiy ehtiyojlar uchun quyidagilar suv manbalari bo'lib xizmat qiladi:

* yomg'ir suvlari hisobiga to'ldiriladigan suv havzalari (ko'llar, hovuzlar);

* tog' daryolaridan oqib keladigan ariqlar;

* buloqlar;

* artezan quduqlari;

* sun'iy quduqlar;

* erigan qor suvlari;

* yer osti suvlarini yuzaga chiqarish uchun qo'lnasoslari.

-Siz kundalik ro'zg'orga ishlatiladigan suv manbalari zavod va fabrikalar, boshqa korxonalarning chiqindi, oqavalari bilan bulg'anmaganmi?

- Oqar suv hisoblanmaydigan suv havzalarida kiyim-kechak,

BIZGA NIMA FOYDALI?
maishiy buyumlar (gilamlar, darpardalar, poloslar va b.) yuvilmayaptimi?

Ichimlik suvlarini yopiq idishlarda- qopqoqli chelaklar, usti yopiq bidonlar va boshqa idishlarda

Suvni olovda isitish uchun ikkita-biri qalin shishadan, ikkinchisi yupqa shishadan tayyorlangan idishlarning qaysi biridan foydalangan ma'qul? Nega?

saqlash shart.

Ularni hashoratlar va kemiruvchilardan nihoyatda ehtiyotlash;

S u v n i

BIR SHINGIL BOG'DAN, BIR SHINGIL TOG'DAN

ichishdan oldin qaynatib olish;

Oziq-ovqat mahsulotlari qoldig'i va chiqindilarni ariqlarga to'kishlariga yo'l qo'ymaslik kerak;

Ovqat tayyorlash va kundalik ehtiyoj uchun ichimlik suvini faqat buloqlardan, kolonka va quduqlardan oling.

Suv - hayot manbai, bas shunday ekan, biz uni hayotimiz uchun xavf tug'diradigan zararli moddalar, mikroblar axlat va chiqindilar bilan ifloslanishidan saqlamog'imiz va ko'z qorachig'iday muhofaza qilmog'imiz shart!

Dunyo tan olgan buyuk alloma hakimlar Abu Ali ibn Sino va Abu-Bakr Muhammad Ibn Zakariyo Roziy davrlaridan yaxshi ma'lumki, kasallikni davolashdan ko'ra, oldini olgan osonroq.

Muqaddas xadislarda aytib o'tilganidek:

«Inson farzandi yaratilganda yonida o'limning 99 sababi ham birga yaratiladi.

Agar u shu o'limlardan xalos topib yashasagina, unga qarilik nasib etadi».

Inson Olloh bergan umrini behalovat o'tkazishni va qarilik gashtini surishni niyat etsa, bu besh kunlik dunyoda bexafsala bo'lmasligi, turli yuqumli bo'lmagan kasalliklarni oldini olish uchun quyidagilarga qat'iy amal qilishi zarur:

* jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish;

* barcha gigiyenik talablarga javob beradigan kun tartibiga amal qilish, ularni o'z vaqtida, majburiy ravishda bajarish, ya'ni hamisha vaqtida uxlash, dam olish, ovqatlanish va hokazolar;

* zararli odatlarni oldini olish; chekish, toksikomaniya, alkohol iste'mol qilish, gilyohvand moddalar, nos (tutunsiz chekish) chekmaslik;

* bir-birimizni avaylab-asrashimiz, va shu tariqa yaxshi kayfiyatli vaziyatlarni yuzaga keltirishimiz darkor;

Donolar tili bilan aytadigan bo'lsak: salomatligini ehtiyot qilib yurgan odam o'ziga nima foydaligini har qanday shifokordan ko'ra yaxshiroq biladi.

YODDAN CHIQUVAS KUN

Rahimova Shahzoda

Ergashevna -

Chilonzor

tumanidagi 281-

litsey -

maktabining 10-

sinf o'quvchisi.

Shahzoda

adabiyotga

ishtiyoqmand qiz.

O'zbek tilida she'rlar

yo'zib, ingliz tiliga

tarjima qiladi. 22 - musiqa maktabida

yetti yil tahsil olib, pianinoda bemalol

betxoven,

Motsart

kuylarini ijro

etadi.

-Shahzoda ilk

yo'zgan

she'ringiz

haqida nima

deya olasiz?

-O'shanda

yoshim nechaligi

yodimda yo'q,

ammo o'sha

kungi tun hanuz

esimda. Tun ko'rpasi aro tannoz Oy

suzib yurardi. Yulduzlar esa go'yo

unga havas qilgandek goh so'nib, goh

yonardilar. Tun osudalagini faqatgina

chigirtkalar suhbatlari buzib turardi. Men

esasa

odatdagidek

dars tayyorlab

o'tirardim.

Bilmadim,

lekin o'sha

damda

onam

yonimda dam olib yotgan bo'lsalar-

da, ularni juda sog'ingandek

bo'ldim. Insho yozishni yaxshi

ko'rardim, ammo bu safar onam uchun

boshqa narsa yozgim keldi. Satrlar

o'zidan-o'zi quyilib kelaverdi. Men



MEROS BO'LINDI

Bir cholning uch o'g'li bo'lib, o'limidan so'ng o'g'illariga 17 ta tuyani meros qilib qoldiribdi. Vasiyatga ko'ra, katta o'g'liga tuyalarning yarmi, o'rtanchasiga uchdan biri va kenjasiga to'qqizdan biri tegibdi. Lekin, 17 na 2 ga, na 3 ga, na 9 ga bo'linadi. O'g'illarning tuyalarni bo'la olmasdan boshlari qotdi. Shu payt bir donishmand o'z tuyasida kelib, merosni vasiyatda ko'rsatilgandek qilib bo'lib berdi. Qanday qilib?

birinchi she'rimni onam, validamga bag'ishladim. Onajonim uchun birinchi yozgan she'rim shu tariqa dunyoga keldi.

-Qaysi kasbni qadrlaysiz?

-Menimcha, bu dunyoda oson

kasbning o'zi bo'lmasa kerak.

Shifokorlarni juda yaxshi

ko'raman. Chunki ular

bemrlarning dardiga malham

bo'ladilar. Kelajakda jarroh

bo'lmoqchiman.

-Oyning o'n beshi yorug', o'n

beshi esa qorong'u deyдилar. Har

edik. Shunda ustozimiz qo'shiq

aytishga meni tanladilar. Qizlar esa

norozi bo'lishdi. O'zim ham hayron

edim, bayramda kiyishga ko'ylagim

ham yo'q. Qanday qilib qo'shiq

aytaman? Uyga kelib onajonimga

hamma gapni aytdim. Onam xursand

bo'lib, menga ko'ylak qidirish uchun

ko'chaga chiqib

ketdilar.

Bayram

boshlanishiga

sanoqli soniyalar

qoldi. Mening esa

ko'ylagim yo'q edi.

Agar menga

ko'ylak topilsa,

Yulduz

Usmonovning

«Qaddingni tik tut

ayol» qo'shig'ini

kuylayman, deb ahd qildim. Va

nihoyat, bayram boshlanganda onam

qo'llarida atlas ko'ylak bilan menga

qarab yugurib keldilar. Ko'ylakni

kiyib qo'shiqni ijro etdim. Zalda

o'tirganlarning barchasi ko'zlariga

yosh olib, qo'shig'imni tinglashdi. Eng

quvonchlisi, ilmiy mudirimizning

o'zlari menga gul tutdilar. Bu

kunlarimni sira yodimdan chiqara

olmayman.


GULYUZ suhbatlashdi.

QUSH PASHSHANING SURATI

Qush- pashsha juda yorqin va juda mittidir. U ko'pincha changalzorlarda yashab, o'rmon gullaridan nektar yig'adi. Qushchening gul ustida turishi sizni bizga kapalakni eslatadi. Qanotlarini g'oyat- qattiq qoqadiki, havoda uning g'uv-g'uvi, hatto vizillagan tovushi eshitiladi. Siz qush-pashsha suratini chizib ko'ring-chi!

bir inson hayoti baxtli va baxtsiz kunlardan iborat bo'ladi. Siz ana shunday kunlaringizda qanday yo'l tutasiz?

-Xursand bo'lganimda ham, xafa bo'lganimda ham musiqa eshitishni yaxshi ko'raman. Chunki sevimli kuylarim yangraganida barcha narsani unutib xayolot olamiga g'arq bo'laman. O'zim ham unda-bunda qo'shiqlar aytaman. Esimda, maktabda bayram arafasi edi. Sinfodoshlar bilan ushbu bayramga tayyorgarlik ko'rayotgan



ISTIQLOL TENGDOISHIGA TILAK

She'r-yurak mahsuli. U teranlik, donolik
va zukkolik
tuyg'ularinig
mujassamligida
izlannishlar, intilishlar
silsilasida yetilib,
dunyoga keladi.

Shahzodbek nozik
tabiatligi, samimiyligi
bilan tengdoshlaridan
ajralib turadi. Jajji
she'riyatida insonga,
Vatanga bo'lgan muhabbatini, ezguliklarga
oshuftaligini tarannum etishga harakat qiladi.

Kelajakda adabiyot gulshanida o'zining
ovoziga, o'rniga ega bo'lishga harakat
qilayotgan istiqloлга tengdosh qalb soxibining
sharaflı ijod cho'qqilari sari parvoz etishga oq
yo'l tilaymiz.

Sadoqat FAYZIYEVA,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.



HURRIYATING MUBORAK!

Go'zallikda tanhosan,
Yagona bir ma'nosan.
Qo'shiqlarda navosan,
O'zbek yurtim, o'z yurtim.
Dovrug'ing elga manzur,
Mustaqilsan, ozod hur,
Vatan, senga tashakkur,
O'zbek yurtim, o'z yurtim.
Yaxshilaring bor bo'lsin,
Ezgu ishlar yor bo'lsin,
Olloh madadkor bo'lsin,
O'zbek yurtim, o'z yurtim.
Aytib dilda borimni,
Atab yozdim she'rimni,
Hurriyating muborak,
O'zbek yurtim, o'z yurtim.

SOG'INCH

She'r yozaman sog'inib,
Ko'z oldimga keltirib.
Sen ham menga intilib,
Kozimjon, kel, jiyanim.
Yo'q, ortiq kutolmasman,
Yuzingdan o'polmasman,
Aslo unutilmasman,
Kozimjon, kel, jiyanim.
Sog'inganman, juda ham,
Kelib bo'l menga hamdam,
Qalbimda qolmasin g'am,
Kozimjon, kel, jiyanim.
Uyqu kelmas ko'zimga,
Rahming kelsin o'zimga,
Yuzing bosay yuzimga,
Kozimjon, kel jiyanim.

Shahzod XOLTO'RAYEV,
Guliston shahar,
12-maktabning
5-sinf
o'quvchisi.



USTOZLAR

Asta yozdim, asta chizdim,
Qo'limga qalam,
Tutgan muallimdan tanidim olam.
Vatanni sevmuqni, sharaf bilmoqni,
Ilmu fan yo'lida zaxmat qilmoqni.
Insonlik bobida odob-ahloqni,
Dinu diyonatda idrok, poklikni,
Ustozdan o'rgandim.
Aziz ustozlar,
Sizni dil bir umr olqab, e'zozlar!

Zaxira ABDULLAYEVA,
Navoiy shahar, Sharof Rashidov nomli
10-o'rta maktabning 8- «D» sinf o'quvchisi.

O'ZBEGIM YULDUZLARI

O'zbekimning yulduzlari nuri taralgay,
Bu nurlardan go'zal raqsu qo'shiq yaralgay!

Buyuk yurtim bayrog'ida o'n ikki yulduz
Jahon bo'ylab jilo berar kechayu kunduz.

Bulbulovoz hofizlari kuylagay xushxon,
Go'zal qizlar sahna uzra urganda javlon!

Barq uradi orzu havas, qaytmagay yoshlik,
Tovushirom, parisiymo yor qaroqoshlik!

Navo yangrab, zarkokillar sahnada paydo
Bo'lib, aylar muxlislarni maftunu shaydo!

O'zbekimning yulduzlari nuri taralgay,
Bu nurlardang go'zal raqsu qo'shiq yaralgay!
Olim BO'RIYEV.

MEHNAT QILSA BO'LADI

Men va singlim Zilola,
Mehnat qildik kun ora.
Gul ekdik, ko'chat ekdik,
Undan so'ng, urug' sepdik.
Parvarishlab biz uni,
Suvlar sepdik har kuni,
Kun o'tdi, oylar o'tdi,
Kelinchak bahor o'tdi.
Yoz kelib, hamma yoqqa,
Kirsangiz bizning boqqa,
Xushbo'y gullar hidini,
Taratadi har yoqqa.

Shahlo AXROROVA,
Jizzax tumani, 23- o'rta
maktabning 5- «A» sinf
o'quvchisi.



MAKTABIM, SENG RAHMAT

Keng bag'ringda bolalar,
O'qiydi doim a'lo.
Shular safida men ham,
O'qib borurman dono.
Maktabim, senga rahmat,
Har daqiqang bir olam,
Tinglayman har darsingni,
Faol qatnashib men ham.

Sherzod BOYBO'TAYEV,
Sirdaryo viloyati, Xovos
tumanidagi 2 - aniq fanlarga
ixtisoslashgan maktabning
9-sinf o'quvchisi.

USTOZLAR OQ YO'L TILAYDI

Murg'ak qalblar zangori samo uzra parvoz
qilayotgan yoshlik orzularini, xuddi shabnam
kabi gullar bag'rida erkanayotgan
tuyg'ularini, sharqiroq soylar kabi
shijoatlarini she'riy satrlarga
muhrlayotganidan behad quvonamiz.

Ko'pdan buyon maktabimiz qoshida «Yosh
ijodkorlar» to'garagi faoliyat olib bormoqda.
Ushbu to'garak doimo o'quvchilar bilan
gavjum. Qadrdon gazetamiz «Tong yulduzi»
orqali iqtidorli shogirdlarimizga oq yo'l
tilayotganimizdan behad minnatdormiz.

Dildora OLIMOVA,
Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 23-o'rta
maktab o'qituvchisi.
Xalima SAMANOVA
Sirdaryo viloyati, Xovos tumani 2 - aniq
fanlarga ixtisoslashgan maktab o'qituvchisi.

MAYJLANAYOTGAN JILG'A

Jilg'ani ko'rganmisiz? U katta-kichik toshlar, o't-o'lanlar, maysalar oralab,
jildirab-mildirab oqadi. Oqishlarida g'oyatda mayinlik, ajib bir nafasat borki, u
yo'l bosgani sayin ortida turfa gullar bosh chayqab qolaveradi. Ana shu mo'jizakor,
hayratdan iborat mavjni jilg'a deyishadi...

Men Orzigul Hamroyevaning she'rlarini o'qiganimda, ko'z oldimda o'sha jilg'a
paydo bo'ldi. Samimiy, inja oqish, inja mavjlar... Endigina 14 bahorni qarshilayotgan
jajji qalb ohanglari...

Ravon va maftunkor. Shunday yoshda daftar-daftar mashqlari biri tugal, biri
notugal, biri avjli, biri tahrir talab. Mayli-da, jilg'a deganingiz hamisha tiniq oqmaydi-
ku.

Eng muhimi, Orzigulning she'riyat deb atalmish chamanzorga zo'r havas va dadil,
toza ovozda kirib kelayotganida, har bir bitigida o'zicha «nimadir» aytayotganida.
Bu aniq va tiniq yo'ldan aslo toymasligini istayman uning.

Niyatlaring amalga oshsin, senga oq yo'l bo'lsin, Orzigul!
Toshpo'lat AHMAD,
shoir, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan Madaniyat xodimi.

ENG ULUG' ZOT

Yurtimizga zavqu shavq
Bag'ishlagan inson kim?
Hurlikni qalbimizga,
Naqshlagan Inson kim?
Dunyolarga yoygan kim,
O'zbekiston nomini?
Kim ko'targan har farzand,
Qadriniyu, shonini?
Deb mendan so'rasalar,
Mag'rur tutgancha boshim,
Der edim ta'zim ila:
Bu zot-ulug' Yurtboshim!

BUXORO

Qalbimning quvonchi o'zingsan, shahrim,
Senda ajdodlarim xoki poyi bor,
Bunyodkor, ijodkor o'g'il qizingga,
Aziz avliyolar ruhi madadkor.
Ne-ne ulug'larga beshiksan, shonsan,
Seni jondan sevgan tark etmas bag'ring,
Islom dini kabi mangu boqiyisan,
Quyoshning nuriga tutashdir umring...

Orzigul HAMROYEVA.

«TONG YULDUZI»NI SEVIB O'QIYMAN

Assalomu-alaykum sevimli «Tong yulduzi» gazetasining
ijodkorlari! Men avval ham sizlarga maktub orqali she'rlarimni
yuborgan edim. Bilsam, maktublarim ayrim sabablarga ko'ra o'z
vaqtida yetib bormabdi. Gazetaning har sonini sevib o'qiganligim
bois, yana maktub yo'llayapman. Sahifalaringni rang-barangligi
hamisha dilimni shod etadi. Tengdoshlarim qatori sahifangda o'z
she'rlarimni chop etilishini istardim.

VATAN

Ming yillik tarixga egasan Vatan,
Ming bitta sir yotar, har qatlaringda.
Ko'z ochib bag'ringda, jannat ko'raman,
Baxt yastanib yotar, sarhadlaringda.


Tongda nurlar gullarga berar saboq,
Tiniq shudringlardan bo'sa olarman.
Gullar shivirlasa, tutaman quloq,
Vatan degan so'zni, shundan toparman.

Vatan bu uychamas ketsa buzilib,
U yaralgan mehr o'choqlaridan.
Har tong ko'z ochsang u, guldek suzilib,
Erkalatar seni quchoqlarida.

Vatan bu - sabomas, kelsa bir esib,
Orombaxsh etibon, qaytib ketgulik.
Vatan hur navodir, yurakdan silqib,
Yaralib, dillarni xushnud etgulik.

Nigora RUSTAMOVA,
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidagi O'ibragimov jamoa
xo'jaligi, Qutchi qishlog'i.





Bu voqeani menga dadam aytib berganlar. Dadajonim uzoq safarlarga qatnaganlari uchun boshlaridan o'tkazgan har bir voqelalarini biz bilan o'rtoqlashadilar.

Bu voqea Rossiyaning o'rmonli yo'llarida sodir bo'lgan ekan. Dadam sheriklari bilan yo'lda kelishayotganida, mashinalari buzilib qolibdi. Ular mashinadan tushib, u yer-bu yerini kovlashibdi. Aksiga olib, kech tushayotgan ekan. Dadamning Tojiboy degan o'rtoqlari bor edi. Mashinaning suvi kam qolganini bilishgach, suv qidirib, o'rmon oralab ketishibdi. O'rmonning ich qismiga kiraverishibdi,

KUNLARDAN BIR KUN

kiraverishibdi, bir qishloqdan chiqib qolishibdi. Suv so'raymiz, deb bir xonadon eshigini taqillatishsa, eshik ochilib ketibdi. Uyda hech kim yo'q emish. Suvni to'latib olishgach, yana eshikni yopib, ko'chaga chiqishibdi. Tojiboy aka yur, tezroq ketaylik, qara jim-jitligini, debdilar. Ammo dadam bu qishloqda nega odam yo'qligini bilish uchun boshqa



eshikni ham taqillatibdilar. U eshik ham ochiq emish. Ichida hech kim yo'q. Shu tariqa o'ntacha uyni taqillatishibdi. Biror jonli narsaning o'zi yo'q emish. Shu payt katta ko'chadan allanimaning qattiq irillagan ovozi eshitilbdi. Qarashsa, katta it bularga qarab tishlarini g'ijirlatib turganmish. Ular qo'rqib ketishganidan orqa-oldilariga qaramay, yugurishibdi. Yo'lga

chiqib qarashsa, it ham, qishloq ham yo'q emish. -Bu sarob, debdilar dadam shoshib qolib. Cho'llarda ham bo'ladi, deb eshitganman. Yana kim biladi, deysan. Ular mashinaga suv quyib, yo'lga tushishibdi. Allaqayergacha gaplashmay borishibdi. So'ng, ikkalasi bir narsa-keyingi safar ham o'sha yerdan o'tishayotganida sirli qishloq haqida umuman o'ylamaslikka ahd qilishibdi. Chunki u yerni o'ylagan sari ularni o'sha yerda yana bir marta bo'lgilari keltirmish...

Feruza ERGASHEVA,
Parkent tumanidagi 27-o'rta maktabning
11-sinf o'quvchisi.

Bizning qishlog'imizdan sal chetroqda kattagina jarlik bor. Bu jarlikdan yozda shovullab suv oqadi. Jarlik juda ham chuqur. Shu jarlikni ustidan ingichkagina ko'prik o'tgan bo'lib,

JINKO'PRIK HAQIDA AFSONA

qishlog'imiz ahli uni Jinko'prik deb atashadi. Men keksa bobomlardan bu ko'prik nimaga unday deb atalishining sirini so'rab, bilib olganman.

Ularning aytishlari bo'yicha, bu ko'prik haqida bobom yoshliklaridayoq har xil afsonalar, mish-mishlar bo'lib turgan ekan. Bularning qay biri haqiqatga yaqin ekanligini bilolmadimu, bobomlarning gaplaridan keyin bu ko'prik haqida mening ham fikrim o'zgardi.

...U paytlarda men o'spirin yoshda edim. Bir yaqin do'stim uylanadigan bo'lib qoldi, deb hikoyalarini boshladilar bobom. U paytlarda kelinni Qo'qon aravada olib kelardik. G'ildiraklari katta-katta aravalarni shunday deb atardik. Kelin qo'shni qishloqdan bo'lgani uchun yo'lga ertaroq chiqdik. Buning ustiga, bu Jinko'prikdan arava o'tmaydi, aylanma yo'l bilan o'tish kerak. Biz besh-oltita og'aynilar aravani kelin va ayollar bilan birga jo'natib, o'zimiz shu ko'prikdan o'tadigan bo'ldik. Hammamiz shirakayfmiz. Jinko'prikka yaqinlashganimiz sayin, o'rtoqlarim hazil qilib, jarlikka itarib yuboraman, deb bir-birlarini siltalaydi. Ularning ichida


men sal savlatliroq bo'lganim uchun ularni «bosib» kelardim. Jardagi suvning vahimali shovullashi eshitilgani sayin, odamning yuragi orqaga tortadi. Biz amallab jinko'prikdan o'ta boshladik. Hazilkashroq o'rtog'imiz bo'lardi, ismi Javlon. U ko'prikni o'rtasiga yetganimizda ko'prikni u yoqdan bu yoqqa chayqaltira boshladi. Biz jonimizni boricha, ko'prikning chetlarini mahkam ushlab oldik. Ammo u qimirlatishdan to'xtamasdi. Shu payt ko'prik tagidan qattiq kulgan ovoz eshitildi. Biz qo'rqib ketganimizdan tilimiz kalimaga kelmay qoldi. Qah-qaha esa kuchayganidan kuchayardi. Men o'rtog'im Rahimga: -Rahim, sen kalimalarni bilarding, birortasini o'qisang-chi, dedim.

U esa qo'rqqanidan dag'-dag' titrab, allanimalar deb pichirlardi. Hatto ko'prikni chayqatayotgan Javlon ham taqqa to'xtagan, ko'prik endi o'zi chayqalardi...



Rahim ketma-ket tilovat qilaverganidanmi, ko'prik birdan to'xtadi. Boyagi vahimali ovoz ham. Hammamiz ko'prikdan asta-sekin o'ta boshladik. U yog'iga qanday yetib borganimiz, to'yxonada qay ahvolda o'tirganimizni bilmayman. Shu-shu bo'ldiyu, jinko'prik tugul, uning yaqinidan ham o'tmaydigan bo'lib qoldim.

Bobomning bu hikoyalaridan keyin bu ko'prik menga yana ham sir-sinoatga to'la bo'lib ko'rindi. Afsuski, kattalar u yerga yaqinlashtirishmaydi-da.

Xurshid SAIDOLIMOV,
Toshkent viloyati, Zarkent qishlog'i.



RASMLAR KO'RGAZMASI



- Bizning 564- qadrdon maktab- bog'chamiz juda chiroyli. Mudira Tafiqa opa Muzaffarova bizni doim kulib qarshilaydilar. Maskanimizda Halima, Dillfuza va Nigina opalarimiz bizga o'qishni, yozishni, rasm chizishni va tikishni o'rgatishadi. Bu yerda men yaxshi ko'radigan va muntazam qatnashadigan taekvando to'garagi ham bor. Bog'chadan qaytayotganimda esa opam Mohinur bilan badiiy gimnastika mashg'ulotlariga boramiz. Undagi mashqlar biram qiyin-ki... Quyunchaning, dadamning, multfilm qahramonlarining rasmlarini chizishni yaxshi ko'raman, deydi 6 yoshli qizaloq Latofat Bobojonova. -Katta bo'lganimda rassom bo'lsammikan yo jurnalist, buni hali o'ylab ko'rganimcha yo'q. Lekin shu ikkitasidan birini tanlashim aniq. Harflarni sharillatib o'qimasam-da, chizgan rasmlarim «Tong yulduzi» sahifalaridan joy olsa juda xursand bo'lardim.

Bir vaqlar hayvonlar va qushlar osmonda yashashar ekan. Ularning orasida it va tovuq ham bor ekan. Bir kuni osmondagi ob-havo buzilib, kun juda soviq ketibdi. Qushlar maslahatlashib, itdan yerga tushib olov olib chiqishni iltimos qilishibdi, chunki juda sovuq qotib ketishgan ekan-da.

It yerga tushibdi va insonning kulbasiga yaqinlashibdi. Bu mo'jizani qarang-a
atrofida
sanoqsiz
sochilib

It olov
unutibdi-

tashlanibdi...

Itni kuta-kuta charchagan qushlar uning inson huzurida yashashga qaror qilganini tushunishibdi. Keyin olov olib kelish uchun tovuqni yuborishibdi.



Osmondan tushgan tovuq insonning kulbasi atrofida sochilib yotgan donlarni ko'ribdi. U darhol donlarni cho'qilab terishni boshlabdi, qorni to'ygach, u ham inson huzurida yashashni ihtiyo etibdi.

Shunday qilib, it va tovuq uy hayvonlariga aylanishibdi. Boshqa hayvonlar va qushlar ularni yoqtirishmaydi, chunki ular do'stlarini kulfatda qoldirib ketishgan ekan.

Gulnoz TOJIBOYEVA tarjimai, o'quvchi.



IT VA TOVUQ UY HAYVONIGA AYLANISHGANI HAQIDA

Afrika xalq ertagi

- kulba
s o n -
suyaklar
yotgannish!
h a q i d a
y u ,
suyaklarga



Birinci qo'ng'iroq... Maktab to'la o'quvchilar, ayniqsa, birinchi sinf o'quvchilarining quvonchlariga sig'maydi.

ko'raylikki, ustozimiz jahl bilan bizga qarab turardilar. O'yinga shunchalik berilib ketibmizki, hatto qo'ng'iroq chalinganini

EH, BOLALIK QAYTIB KELMAYDI!!

Ularni ko'rib, beixtiyor birinchi sinfga kelgan kezlarim yodimga tushib ketdi. Biz ham ulardek o'yinga to'ymaydigan paytlarimiz edi. Sinfidoshlarimiz bilan turli o'yinlar o'ynardik. Bu ham yetmaganday, sinfda ustozimiz yo'q bo'lsa, butun maktabni boshga ko'targudek qilib to'polon qilardik.

... O'shanda qish kunlari edi. Atrofni oppoq qor qoplagan, tanaffusda kimdir yaxmalak uchsa, kimdir qorbo'ron o'ynardi. Biz ham sinfidoshlarim bilan maktabning sport maydonchasiga borib, qorbo'ron o'ynadik, keyin qorbobo yasashga tushdik. Bir payt kimningdir qattiq ovozda chaqirganini eshitdik. Yon-atrofni qarasak, bizning sinfimiz o'quvchilaridan boshqa hech kim yo'q. Orqamizga o'girilsak, ne ko'z bilan



ham bilmay qolibmiz... Sinfga kimgach, ustozimiz bizni rosa koyidilar. Biz ulardan kechirim so'radik va joy-joyimizga o'tirib, navbatdagi darsga tayyorlandik.

Mana, o'sha kunlar nazarimda kechagina o'tgan edi, hozir esa 9-sinf o'quvchisimiz. Quyi sinfda qilgan ishlarimizni ba'zan kulib, ba'zan xafa bo'lib eslab turamiz. Bu xotiralar qalbimizda mangu yashaydi. Bugungi birinchi sinflarni ko'rib, ularga havasim keladi. Chunki ular biz bu yil tashlab ketadigan maktabda 9 yil o'qishadi. Eh, bolalik qaytib kelmaydi-da, afsus.

Kamola ERGASH qizi.
Toshkent viloyati, Toshkent tumani,
A. To'laganov nomli
7- maktabning 9-sinf o'quvchisi.

OTAJONIM UMIDI HAQQI

Bu tong meni ufqdan quyosh,
Kuy-qo'shiqqa o'rab uyg'otdi.
O'ng kelgandi bor shirin tushlar,
Mening ozod tonglarim otdi.

Bu tonglarni hech kimga bermam,
Onajonim umidi haqqi.
Boyliklarga hech ham alishmam,
Otajonim umidi haqqi.



**Buloqning suvi
tiniq, dononing
suhbati.**

GO'ZALLIK

Go'zallik dunyoni qutqarar derlar,
Ezgulik bahorga hamnafas yashar,
Ona farzandiga baxt tilar, derlar,
Onamning quvonchi menga yarashar.

Onajon, siz bois yuzlarimda nur,
Siz bois topoldim farzandlik taxtim.
Men sizni ulug'lab, kuylasam mag'rur-
Jarangin dunyoga yoymoqlik ahdim.

Feruza QURBONOVA,
Surhondaryo viloyati, Denov shahridagi
84-umumiy o'rta ta'lim maktab.



Adabiyot darsida o'qituvchi
Doniyordan so'radi:

- Qani aruz vaznini do'stlaringga
tushuntirib ber-chi?

- Aruz vazni eng og'ir vazn, bunga
Xolmuhammad kiradi.

Chunki kuhi
k e c h a
v a z n i m i z n i
o'lchatganimizda
u hammamizdan og'ir - 80 kilogramm
chiqdi.

Shohsanam NURMATOVA,
Samarqand viloyati, Narpay
tumanidagi 65-maktabning 4-sinf
o'quvchisi.



BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz «Tong yulduzi» sahifalarida
uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga
yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va
topag'onligingizni sinash maqsadida
harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib
qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida
ishlatilmaydi...

Maqsadimiz, bilimli bo'ling. Chunki
osmonni yulduzlar, yerni esa
bilimlilar bezar.

1. «Xadis»
so'zi qaysi tildan
olingan?

- A. Arabchadan.
B. Hindchadan.
C. Tojikchadan.

2. Yer yuzidagi eng baland
hayvon nomi?

- A. Gorilla.
B. Jirafa.
C. Begemot.

3. O'zbekistondagi eng
qadimiy sport turi?

- A. Futbol.
B. Qilichbozlik.

C. Kurash.

4. Suvda ham,
quruqlikda ham yashay
oladigan jonzor?

- A. Qurbaqa.
B. Akula.
C. O'rdak.

5. Tropik va qisman
subtropiklarda palmalarni
nechaga yaqin turkumi o'sadi?

- A. 345 ga yaqin.
B. 240 ga yaqin.
C. 989 ga yaqin turkumi o'sadi.
Ruxsora JALILOVA, o'quvchi.

ARALASH

TEST


BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

Savollar:

1. Yaxshi insondan olinadigan namuna.
2. Vaqtni belgilaydigan jism. 3. O'quvchi uchun
zarur narsa. 4. O'zbekistonning «Qizil kitobi»ga
kiritilgan o'simlik. 5. Yerning kichraytirilgan
nusxasi. 6. Yeb to'ymas hasharot. 7. O'rmon
qushi.

Bo'g'irsoqning taxtasiga Oybekning
qissalaridan birining nomi yashiringan.

Shahzoda RIZAYEVA,
«Orom» nomli bog'cha-maktabning 5-sinf
o'quvchisi.



Ona yurti - olin beshing
**TONG
Yulduzi**

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
**O'ZBEKISTON
MATBUOT VA
AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOIIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI**

Bosh muharrir
Umida
**ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:**
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Nashir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«O'zbekiston»
nashriyoti matbaa
bazasida chop etildi.
Adadi - 11408
Korxona manzili:
700129,
Toshkent,
Navoiy
ko'chasi, 30.
Buyurtma № T-03
Gazetani
Muharrama
PIRMATOVA
sahifaladi.
Naybatchi:
Ozoda
TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzili: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75